TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI.....	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Xolijorova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbonov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукаяхоровна, Ашурув Сардоржон Зафаржонович	
XORIJIIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI.....	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSİYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSİYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumo'minovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSİYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibodullo qizi	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO'QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH	1039
Ermatov Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSİYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	



BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Karimov Shoxrux Boydulla ugli
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida risk madaniyatining mohiyati va mazmuni yoritilib, uning iqtisodiy ahamiyati hamda risklarni boshqarish jarayonlaridagi funksional roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, risk madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar aniqlanib, ushbu tushunchaning amaliy jihatdan ustun tomonlari va takomillashtirish imkoniyatlari qiyosiy baholanadi. Tadqiqot doirasida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar hamda amaliyotchi mutaxassislarning qarashlari tizimli ravishda umumlashtiriladi. Maqola yakunida o'tkazilgan tahlillar asosida ilmiy xulosalar shakllantirilib, tijorat banklarida risk madaniyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: risk, risk madaniyati, risk-appetit, risklarni baholash, xodimlar, risk bo'linmasi, kompaniya, tashkilot hisobotchiligi.

Abstract. This article examines the essence and content of risk culture in commercial banks and provides a scientific analysis of its economic significance and functional role in risk management processes. In addition, the study identifies key directions that contribute to the formation and development of risk culture and offers a comparative assessment of its practical strengths and potential areas for improvement. The research synthesizes relevant academic literature as well as the perspectives of industry practitioners. Based on the results of the analysis, the article presents well-grounded conclusions and practical recommendations aimed at enhancing risk culture and improving the effectiveness of risk management in commercial banks.

Key words: risk, risk culture, risk appetite, risk assessment, employees, risk unit, company, organizational reporting.

Аннотация. В статье раскрываются сущность и содержание культуры риска в коммерческих банках, а также проводится анализ её экономической значимости и функциональной роли в процессах управления рисками. Одновременно определяются ключевые направления, способствующие формированию и развитию культуры риска, и осуществляется сравнительная оценка её практических преимуществ и возможностей дальнейшего совершенствования. В рамках исследования обобщаются подходы, представленные в научной литературе, а также взгляды специалистов-практиков по данной тематике. В заключительной части статьи на основе полученных результатов сформулированы научные выводы и представлены практические рекомендации, направленные на повышение эффективности управления рисками в коммерческих банках.

Ключевые слова: риск, культура риска, риск-аппетит, оценка рисков, персонал, подразделение по рискам, компания, отчетность организации.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, ayniqsa so'nggi yillarda banklar faoliyatini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida bank sektorini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda tavakkalchiliklarni boshqarish samaradorligini oshirishdan iboratdir. Buning uchun kreditlash hajmlarining keskin emas, balki bosqichma-bosqich va barqaror o'sib borishi ta'minlanishi, makroiqtisodiy siyosat esa iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlik o'rtasida muvozanatni saqlagan holda olib borilishi lozim. Shuningdek, moliyaviy risklarni baholashda zamonaviy texnologik yechimlar — analitika, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va raqamli monitoring vositalarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois banklar risklarni boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy yondashuvlarni o'zlashtirib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirgan holda amaliyotga tatbiq etishi zarur.

Bank tizimi taraqqiyotining yangi bosqichi valyuta siyosatining liberallasuvi, masofaviy va raqamli bank xizmatlarining faol kengayishi, bozor mexanizmlariga o'tishni jadallashtiruvchi institutsional islohotlar, shuningdek, davlat ishtirokidagi banklarni transformatsiya qilish va xususiyashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar



bilan tavsiflanadi. Transformatsiya jarayonlari 2020-yildan boshlab har bir bank kesimida tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi belgilangan bo'lib, kapitalni mustahkamlash, resurs bazasini kengaytirish va daromadlarni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab berilgan. Shu nuqta nazardan, banklarning investitsion jozibadorligini oshirishda risklarni boshqarish tizimining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, investorlar uchun bankka yo'naltirilgan kapitalning asosiy maqsadi barqaror daromad olish hamda risklar darajasini qabul qilinadigan chegaralarda saqlab turishdan iboratdir. Shu sababli investitsiya qarorini qabul qilish jarayonida investorlar bankda risklarni aniqlash, baholash va nazorat qilish mexanizmlarining samaradorligiga, risk-appetitga rioya etilishiga hamda risklarni boshqarish tizimining korporativ boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuv darajasiga alohida e'tibor qaratadilar.

Amaldagi kredit portfeli dinamikasi mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Jumladan, 2025-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarida umumiy kredit portfeli 533 121 mlrd so'mni, muammoli kreditlar (NPL) hajmi esa 21 185 mlrd so'mni tashkil etib, ularning ulushi 4,0 % darajasida qayd etilgan. Ushbu sharoitda risk madaniyatini kuchaytirish kredit portfeli sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Risk madaniyatining rivojlanishi kapital yetarililigiga bo'lgan talablar, likvidlik barqarorligi hamda bankning umumiy risk-profilining shakllanishi kabi makro va mikro darajadagi moliyaviy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

Regulyator talablariga muvofiq, risk madaniyati banklarda risklarni boshqarish tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi lozim. Buning uchun xodimlar risk-appetit va belgilangan limitlarga rioya etish bo'yicha o'z mas'uliyatini aniq anglab yetishi, korporativ qadriyatlar va axloqiy me'yorlar muntazam ravishda tushuntirib borilishi, qoidabuzarliklar uchun javobgarlik mexanizmlari samarali ishlashi zarur. Shuningdek, xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida doimiy trening va seminarlar tashkil etish, muammo va risklar yuzasidan ochiq muloqotni ta'minlaydigan ichki hamda tashqi kommunikatsiya kanallarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar banklarda risklarni boshqarish bo'yicha amaldagi me'yoriy talablar bilan to'liq uyg'unlashadi.

Moliyaviy tashkilotlar, xususan banklar faoliyatida risk madaniyati risklarni boshqarish tizimining samaradorligini belgilovchi muhim institutsional omil hisoblanadi hamda bank institutlarining barqaror va izchil rivojlanishida asosiy tarkibiy qismlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda ayrim tadqiqotchilar zaif risk madaniyatini global moliyaviy inqirozlar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida qayd etadilar. Jumladan, 2008-yil mart oyida AQShdagi yirik investitsiya banklaridan biri bo'lgan Bear Stearns bankining moliyaviy inqirozga uchrashi risk madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatuvchi amaliy misol sifatida keltiriladi.

Keltirilgan holatlar banklarda risk madaniyatini shakllantirish va uni samarali yo'lga qo'yish masalasining nazariy hamda amaliy ahamiyati yuqoriligini yaqqol namoyon etadi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan tahlillarni amalga oshirish, konseptual yondashuvlarni takomillashtirish hamda bank amaliyotiga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Risk madaniyati tashkilot barcha ehtimoliy risklarni alohida tahlil qilmagan sharoitda ham rahbariyat va xodimlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning mazmuni hamda sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday madaniyat shakllangan muhitda xodimlar tashkilotning riskka nisbatan pozitsiyasini (risk-appetitini), o'z vakolatlari va mas'uliyat chegaralarini aniq anglaydi hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni rahbariyat bilan ochiq va konstruktiv tarzda muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni¹ — "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" bank sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishni nazarda tutadi (Farmon, 2020). Mazkur hujjatga muvofiq, bank sektoriga davlat aralashuvini bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadida 2025-yilga borib davlat ulushi mavjud bo'lmagan bank aktivlari ulushini amaldagi 15 % darajadan 60 % gacha oshirish belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish hamda ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlarga banklarning bardoshlilikini ta'minlash uchun makroprudentsial buferlar yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan (Farmon, 2022).

Ekspert baholash natijalariga ko'ra, tijorat banklari faoliyatida vujudga keladigan risklar orasida kredit risklari yuqori ahamiyatga ega bo'lib, ular banklar faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro ekspert D. Hillson yondashuviga ko'ra, risk madaniyatini rivojlantirish va uni tizimli

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>.



ravishda qo'llab-quvvatlash risklarni boshqarish tizimining umumiy samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Risk madaniyati, ayniqsa noaniqlik darajasi yuqori va qarorlar qiymati katta bo'lgan sharoitlarda, tashkilotning risk-appetiti hamda riskka bo'lgan munosabatini shakllantirib, strategik maqsadlar bilan amaliy harakatlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlaydi. Natijada tavakkalchiliklarni oqilona va xavfsiz qabul qilish hamda ularni nazorat qilinadigan darajada boshqarish imkoniyatlari kengayadi (Hillson, 2019).

Shu nuqtai nazardan, risk madaniyatini bank faoliyatida risklarni qabul qilish va boshqarishga oid qadriyatlar, me'yorlar, e'tiqodlar hamda bilimlar majmuasi sifatida talqin etish mumkin. Mazkur omil xodimlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatib, risklarni o'z vaqtida aniqlash, ularni ochiq muhokama qilish, zarur hollarda risklar bo'yicha qarorlarni yuqori boshqaruv darajasiga eskalatsiya qilish hamda belgilangan risk-appetit chegaralaridan chetga chiqadigan operatsiyalarni cheklash mexanizmlarining samarali ishlash muhitini shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda banklarda risk madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi doirasida mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy hamda institutsional tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda Bazel qo'mitasi tavsiyalari chuqur tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar sharhi asosida risk madaniyatining nazariy asoslari va ilg'or xorijiy tajribalar tizimli ravishda umumlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar hamda amaliy keyslar tahlili orqali risk madaniyatining banklar faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri baholandi. Analitik yondashuv yordamida risk madaniyati va risklarni boshqarish tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi. Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirish, ularning amaliy ahamiyatini ta'minlash hamda banklar faoliyatida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bazel qo'mitasi yondashuvlariga ko'ra, risk madaniyati bankning "ichki boshqaruv muhiti"ni ifodalovchi muhim institutsional omil sifatida qaraladi va u risklarni qabul qilish, cheklash hamda eskalatsiya qilish bo'yicha qarorlar qanday tartibda va qanday mezonlar asosida qabul qilinishini amalda belgilab beradi. Shu ma'noda, risk madaniyatining yetuklik darajasi bank faoliyatida rahbariyatning namuna ko'rsatishi, javobgarlik va hisobdorlikning aniqligi, samarali kommunikatsiya hamda o'zgarishlarga moslashuvchanlik, shuningdek, rag'batlantirish va stimullar tizimining risk-appetitga mosligi orqali namoyon bo'ladi. Xususan, kuzatuv kengashi va bank rahbariyati riskka mas'uliyatli munosabatni faqat ichki hujjatlarda emas, balki kundalik boshqaruv qarorlarida ham izchil ravishda namoyon etishi lozim. Amaliyotda bu yirik bitimlar bo'yicha qarorlar qabul qilinishida daromadni maksimal oshirishdan ko'ra, risk-appetit va belgilangan limitlarga muvofiqlikni ustuvor mezon sifatida belgilashda namoyon bo'ladi.

Risk madaniyatining muhim tarkibiy jihatlaridan biri har bir boshqaruv darajasida rol va mas'uliyatning aniq belgilanganligidir. Bunday sharoitda risk omillari qaror qabul qilish jarayonida chetda qolmaydi, balki tizimli ravishda baholanadi va zarurat tug'ilganda belgilangan eskalatsiya mexanizmlari orqali yuqori boshqaruv darajasiga olib chiqiladi. Samarali kommunikatsiya mavjud bo'lgan ichki muhitda risklar haqida ochiq va dalillarga asoslangan muloqot shakllanib, tashqi makroiqtisodiy omillar — valyuta kurslari, inflyatsiya yoki bozor stavkalaridagi o'zgarishlarga nisbatan tezkor va asoslangan choralar ko'rish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, rag'batlantirish va motivatsiya tizimi risk-appetit hamda uzoq muddatli barqarorlik tamoyillariga mos ravishda shakllantirilganda, xodimlarning qisqa muddatli foyda ortidan ortiqcha riskka kirish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

Risk madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi ko'pincha xodimlar xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi psixologik omillar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holatda risklar haqida ochiq fikr bildirishdan cho'chish, javobgarlikni o'z zimmasiga olishdan qochish yoki risklarni boshqarishni ortiqcha byurokratik jarayon sifatida qabul qilish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Natijada risklarni boshqarish tizimi mazmunan emas, balki shaklanishlovchi, ya'ni formal xarakter kasb etadi. Shu sababli xodimlar o'rtasida risklarni boshqarish madaniyatini mustahkamlash banklarda risklarni boshqarish tizimini joriy etish va uning barqaror faoliyatini ta'minlashda hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi.

Risk madaniyatini kuchaytirish risklarni boshqarish funksiyasini biznes jarayonlariga integratsiya qilish, xodimlar kompetensiyalarini oshirish, rag'batlantirish mexanizmlarini to'g'ri shakllantirish, yuqori rahbariyatning aniq pozitsiyasi va namunasini ta'minlash, shuningdek, ochiq muloqot muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi. Bunda risklarni boshqarish strategiyasi tashkilotning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy muvofiqlashtirilishi, missiya va uzoq muddatli maqsadlarni qo'llab-quvvatlashi hamda korporativ qadriyatlar



va risk-appetitga mos kelishi lozim. Aks holda, strategik nomutanosiblik tashkilot samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Rivojlangan risk madaniyati, odatda, risklarni xolis va aniq baholash, qarorlarni tezkor va asoslangan qabul qilish, jarayonlarni tanqidiy tahlil etish hamda risklarni erta aniqlash orqali salbiy oqibatlarni cheklash imkoniyatlarining kengayishi bilan tavsiflanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, risk madaniyati tijorat banklari faoliyatining institutsional jihatdan muhim tarkibiy qismi bo'lib, u bankda risklarni qabul qilish, baholash va boshqarishga oid qadriyatlar, me'yorlar hamda xulq-atvor standartlarini shakllantiradi. Ushbu omil risklarni boshqarish funksiyasining korporativ boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlariga integratsiyalashuv darajasini belgilab, risk-appetit va belgilangan limitlarga rioya etilishi, ichki nazorat mexanizmlari hamda hisobdorlik tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada risk madaniyatining rivojlanganlik darajasi bankning moliyaviy barqarorligi, kredit portfeli sifati va umumiy risk-profilida kompleks tarzda namoyon bo'ladi.

Rivojlangan risk madaniyati tashkilotda risklardan xabardorlikni oshiradi, shaffof muloqot va hisobdorlikni rag'batlantiradi hamda noaniqlik sharoitida qarorlarni dalillarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Riskka mas'uliyatli yondashuv va axloqiy xulq-atvor standartlarining mustahkamlanishi banklar faoliyatiga bo'lgan ishonchni oshirib, manfaatdor tomonlar uchun uzoq muddatli qiymat yaratish salohiyatini kuchaytiradi.

Risk madaniyati yetarli darajada shakllanmagan muhitda limit buzilishlari ko'pincha tizimli tahlildan ko'ra individual javobgarlikni belgilashga yo'naltirilgan yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Bunday sharoitda axborot almashinuvi kechikishi, qaror qabul qilish jarayonlarining cho'zilishi hamda hujjatlarni formal moslashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortishi mumkin. Natijada tashkilot miqyosida tajribadan samarali xulosa chiqarish va standartlarni yangilash mexanizmlari yetarli darajada ishlamasligi ehtimoli yuzaga keladi.

Aksincha, risk madaniyati rivojlangan muhitda limit buzilishi ayb sifatida emas, balki risklarni boshqarish tizimi uchun erta ogohlantiruvchi signal sifatida talqin etiladi. Bunday sharoitda holat o'z vaqtida qayd etilib, tegishli boshqaruv darajasiga olib chiqiladi, risk-profil va risk-appetitga muvofiqlik tezkor baholanadi hamda asoslangan qarorlar qabul qilinadi. Qabul qilingan qarorlar va ularning asoslari hujjatlashtiriladi, mazkur tajriba asosida ichki standartlar va nazorat mexanizmlari takomillashtiriladi. Natijada alohida holat keyingi qarorlar sifatini oshirish va tizim barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, risk madaniyati darajasi amalda qoidalar to'plami bilan emas, balki reaksiya tezligi, masalalarni yuqori boshqaruv darajasiga olib chiqish sifati, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, hisobdorlik mexanizmlari hamda nazorat vositalarining oqilona dizayni orqali namoyon bo'ladi. Risk madaniyati rivojlangan muhitda har bir amaliy keys bank tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni, 2020-yil 12-yanvar. <https://lex.uz/docs/4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Banklar va banklar guruhlarida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom (Boshqaruv qarori № 3427). <https://lex.uz/docs/6436466>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti. <https://stat.uz/uz/>
4. Togaev, S. S., & Amirov, E. D. (2016). Osnovnie rekomendatsii vnedreniya mezhdunarodnykh standartov Bazel III v mire i osobennosti vnedreniya ikh v Uzbekistane. World Science, 3(3(7)), 56–61.
5. Smirnov, A. V. Risk-meneditment i upravlenie resursami kommercheskogo banka. <https://forinsurer.com/public/04/05/20/1199>
6. Abdullaeva, Sh. Z. Bank risklari. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019-yil.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>